

IKKI MAMLAKAT O‘RTASIDAGI KENG QAMROVLI SHERIKLIK MUNOSABATLARI RIVOJI YO‘LIDAGI TARIXIY TASHRIF

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning taklifiga binoan 24-25-iyun kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Tarixdagi birinchi bo‘lgan ushbu tashrif O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston munosabatlarida yangi bosqichni boshlab berdi va ko‘p qirrali hamkorlik rivoji uchun keng imkoniyatlar ochdi.

Davlatimiz rahbari tashrifning birinchi kuni Ulan-Bator shahrida Prezident Uxnaagiyn Xurelsux bilan tor doirada va kengaytirilgan tarkibda muzokara o‘tkazdi. Amaliy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va sanoat sohalarida kooperatsiyani rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux Keng qamrovli sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Shuningdek, Prezidentlar huzurida quyidagi hujjatlar imzolandi:

— o‘simliklar karantini va himoyasi, oliy ta‘lim, tog‘-kon sanoati, atrof-muhitni muhofaza qilish, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, sog‘liqni saqlash va tibbiyot fani, jismoniy tarbiya

va sport sohalarida hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar;

— ikki mamlakat arxiv idoralari o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

— O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan Mo‘g‘uliston Iqtisodiyot va taraqqiyot vazirligi o‘rtasida, tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan Mo‘g‘uliston Madaniyat, sport, turizm va yoshlar vazirligi o‘rtasida 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturlari;

— O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Mo‘g‘uliston Oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi va yengil sanoat vazirligi o‘rtasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha hamkorlik rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan Mo‘g‘uliston Madaniyat, sport, turizm va yoshlar vazirligi o‘rtasida ekoturizm sohasidagi harakatlar rejasi.

Ushbu muhim hujjatlar o‘zaro aloqalarning yangi bosqichida ikki yurt uchun istiqbolli va muhim ahamiyatga ega o‘zaro manfaatli munosabatlar boshlanganini tasdiqlaydi.

Ta’kidlash joiz, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik strategik manfaatlariga chuqur hurmat va tarixiy-madaniy yaqinlikka asoslangan. Umuman, keng qamrovli sheriklik abadiy do‘stlik rishtasini mustahkamlab, hamkorlik tarixida yangi sahifa ochishi shubhasiz.

Prezidentlar rafiqalari bilan ikki mamlakat san’at ustalarining qo‘shma konsertida ishtirok etdilar.

Tashrifning ikkinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux rafiqalari bilan birga “Ix Tenger” davlat majmuasi bog‘ida daraxt ekdilar.

Marosim ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik tobora mustahkamlanib borayotgani, O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston keng qamrovli sheriklik munosabatlarining rivojlanishida yangi bosqich boshlanganining ramzi bo‘ldi.

Tashrif davomida oliy martabali mehmonlar “Naadam” an’anaviy mo‘g‘ul bellashuvlarini tomosha qildilar.

Mo‘g‘ulistonga ilk tashrif ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlari rivojida tarixiy voqea bo‘ldi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mo‘g‘ulistonga davlat tashrifi yakunlandi.

O‘za

QADRI TOG‘ — QALBI DARYO EL

Qadimdan davlatlar tamadduni, insoniyat kamolotida suv va olov unsurlari muhim o‘rin tutgan. Ilk davlatchilik, turmush tarzi, madaniyat rivojlangan Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Xitoy sivilizatsiyalarining barchasi Dajla va Furot, Nil, Hind va Ganga, Vey va Xuanxe daryolari bo‘yida yuzaga kelgani bejiz emas...

Osmon ostidagi osmon deya ta’riflangan purviqor Hisor tog‘ tizmalaridan sakragan Qashqadaryo suvi Kitob, Shahrisabzning yashil qir-adirlaridan uchqur ot kabi yugurib o‘tadi. So‘ng Yakkabog‘ bog‘laridagi daraxtlarning ildizini silab, quvvat beradi va Chiroqchi, Qamashi yaylovlariga gul-lolalar sepadi. Qarshi, Muborak cho‘llariga jang maydonida yaralangan, bemajol, ammo hayot bayrog‘ini qo‘lida tik tutgan askarday kirib boradi. Ertaklarda so‘zlanganidek, abadiy yoshlik bulog‘i o‘zani bo‘ylab yastangan bepoyon Qashqa vohasiga uzoq yillardan beri jon bag‘ishlab keladi.

Daryo-chi, shamshir kabi yaltirab yotar daryo, Tushovidan bo‘shalgan ot kabi chopar sarson. O, sen darbadar daryo, o, sen serxatar daryo, Bunchalar vazminsanu bunchalar quv, o‘jarsan!

Atoqli shoir Abdulla Oripov she’rida yozgandek, Qashqadaryo — quvlik, goh o‘jarlik, goh vazminlik bilan voha xalqining hayotiga ba’zan sinov, ko‘p hollarda qut-baraka, farovonlik olib kiradi. O‘zani bo‘ylarida yastangan tarixi ikki-uch ming yillik o‘tmishga borib taqaladigan Qashqa vohasi sivilizatsiyasida bu nahr eng muhim unsur vazifasini o‘taydi.

Davomi 3-betda



QUYOSH PANELIDA ISHLAYDIGAN SUV NASOSI

KAM TA’MINLANGAN OILALAR UCHUN TEJAMKOR TEXNOLOGIYA

Hamma yaxshi yashashga, farovon hayot kechirishga intiladi. Ammo ayrim ijtimoiy muammolar, turli vaziyatlar borki, bunga yo‘l bermaydi. Kambag‘allik ana shunday ijtimoiy muammolardan.

Atrofimizda biror qiynalgan oila bo‘lsa, insoniylik jihatidan unga yordam qo‘lini cho‘zimiz. Biroq qo‘ldan berganga qush to‘ymaydi. Bir oilaning farovon hayot kechirishi uchun doimiy daromad manbai zarur. Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlarning bosh

maqsadi ham shu. Kam ta‘minlangan oilalar a‘zolarining qiziqishi, hudud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bandligini ta‘minlash orqali daromadini oshirish choralari ko‘rilyapti.

Davomi 4-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATINI 2030-YILGA QADAR RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

So‘nggi yillarda xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining (keyingi o‘rinlarda — mahalliy Kengashlar) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni hal etish bo‘yicha vakolatlarining takomillashayotganligi, shuningdek, yangilangan Konstitutsiyada mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilishi belgilanganligidan kelib chiqib, “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsadlar
1. Ushbu Farmonni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar etib quyidagilar belgilansin:

a) mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, jumladan, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda

mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish;

b) fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishiga oid demokratlashtirish jarayonlarini mustahkamlash, ijro hokimiyati organlarining mahalliy xalq vakillari oldidagi hisobdorligini oshirish;

d) hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida nomarkazlashtirish va Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari hamda tuman va shahar Kengashlari vakolatlarini muvozanatli taqsimlash, har bir bo‘g‘indagi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vazifa va funksiyalarini aniq belgilash;

e) hududlararo savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kuchaytirish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari xalqaro hamkorligining huquqiy asoslarini mustahkamlash.

Davomi 2-betda



HAMKORLIKNING YANGI ARXITEKTURASI BARQAROR RIVOJLANISHGA UMUMIY INTILISHNI NAMOYON QILADI

Xorijiy ekspert doiralari vakillari O‘zbekiston Prezidentining Mo‘g‘ulistonga davlat tashrifi yakunlari haqida

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 24-25-iyun kunlari Mo‘g‘ulistonga davlat tashrifi ikki mamlakat munosabatlarida tarixiy voqea bo‘lib, o‘zaro hamkorlikning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berdi. Bu O‘zbekiston

yetakchisining Ulan-Batorga birinchi tashrifi hisoblanadi hamda rasmiy Toshkentning Sharqiy Osiyo mintaqasida diplomatik va iqtisodiy ishtirokini kengaytirish istagini yaqqol namoyon etadi.

Davomi 2-betda

QADRIYATLAR QO‘RIG‘IDAGI IQTISODIYOT

SAYOHAT ZAVQIMI YOKI MAS’ULIYAT?

Inson tabiati izlanish, anglash va ma’noni kashf etishga moyil. Bu yo‘ldagi muhim vositalardan biri — sayohat. U faqat makondan makonga yo‘nalish emas, balki shaxs kamoloti, dunyoqarash kengayishi va turfa madaniyatlarni anglash yo‘lidir.

Xususan, XXI asrda sayohat inson hayotida nafaqat madaniy zavq manbai, balki jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi vositaga aylanib bormoqda. U global muloqot, madaniyatlar o‘rtasida ko‘priki va iqtisodiy o‘shish uchun asosiy maydon vazifasini o‘tamoqda.

Global aloqa va milliy o‘zlik o‘rtasidagi muvozanat

Keyingi yillarda yurtimiz boy tarixi, madaniyati, noyob me’moriy merosi va mehmondo‘st xalqi orqali xalqaro turizm xaritasidagi o‘mini mustahkamlab boryapti.

Davomi 4-betda



TEJAMKORLIK — RIZQ-NASIBA BUTUNLIGI

6

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N IO‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI
VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATINI 2030-YILGA QADAR
RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

II. Dasturiy hujjatlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari

2. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

b) O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi vakolatlarni Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazish bo‘yicha takliflarga rozilik berilsin:

a) davlat ko‘chmas mulkidan foydalanlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini belgilash;

b) dafn etish joylarini saqlash qoidalarini va dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash;

d) ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va xaziraga qo‘yish;

e) yo‘llarning ayrim qismlarida harakatlaniish tezligini oshirishga yoki kamaytirishga (tegishli yo‘l belgilari o‘rnatib) ruxsat berish.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

a) budget loyihasini ishlab chiqishda mahalliy budget xarajatlarning muayyan qismini mahalliy Kengash deputatlarining bevosita tashabbusi asosida shakllantirish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi;

b) Oliy Majlis palatalari huzuridagi

yoshlar parlamentlari tajribasidan kelib chiqqan holda, jamoatchilik asosida mahalliy Kengashlar qoshida Yoshlar guruhlarini tashkil etiladi;

d) mahalliy Kengash huzurida nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda ilmiy doiralar vakillaridan iborat jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan Maslahat guruhlarini tashkil etiladi;

e) mahalliy Kengashlar kotibiyatlari faoliyatini tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan mustaqil moliyaviy hisob-kitob tizimi joriy etiladi;

f) Xalq deputatlari mahalliy Kengashi raisi o‘rinbosari instituti tashkil etiladi.

5. Konsepsiya doirasida quyidagi takliflarni amalga oshirishga rozilik berilsin:

a) viloyat, Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarligiga nomzodlarni tegishli mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalarida dastlabki tarzda muhokama qilish, Kengash sessiyalarida nomzodlar tomonidan o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha hududni rivojlantirish dasturlarini taqdim etish tartibini joriy etish;

b) mahalliy Kengashlarda deputatlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish bo‘yicha “Kengash soati” institutini joriy qilish;

d) mahalliy Kengashlar faoliyatining tashkiliy-moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalalarini mahalliy byudjet parametrlarida alohida ko‘rsatish orqali mehnatga haq to‘lash, rag‘batlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash shartlarini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat darajasidan past bo‘lmagan holda belgilash;

e) mahalliy Kengashlarning Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalariga Kengash qarori bilan lavozimga tasdiqlanadigan, tayinlanadigan, lavozimga tayinlanishida Kengash roziligi olinadigan mansabdor shaxslar tomonidan odob-axloq normalarini buzganlik bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish huquqini berish;

f) Mahalliy Kengash qarorlarini qabul qilish jarayonlarining ochiqligini ta‘minlash maqsadida fuqarolarning sessiya ishini bevosita kuzatish imkoniyatini yaratish. Bunda mahalliy Kengash sessiyalarida fuqarolarning sessiya ishiga aralashish huquqisiz kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi tartibini belgilash.

III. Axborot va dasturiy ta‘minot

6. Raqamli texnologiyalar vazirligi bosqichma-bosqich “E-Kengash” elektron platformasini “qulaylik — soddalik — xavfsizlik” tamoyili asosida doimiy takomillashtirib borsin. Bunda “E-Kengash” elektron platformasida quyidagi asosiy imkoniyatlar bo‘lishi nazarda tutilsin:

a) mahalliy Kengashlar faoliyatiga doir hujjatlarni xavfsiz elektron arxiv platformasida (blockchain) saqlash imkoniyatini joriy etish;

b) katta hajmli ma‘lumotlar bilan ishlashda jamlangan namunaviy hujjatlar, tahliiliy ma‘lumot, hisobot va axborotlardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali qaror loyihalarini ishlab chiqish jarayonida tezkorlik va qulaylik yaratish;

d) “E-Kengash” elektron platformasini turli tashqi xavflardan himoya qilish, axborot xavfsizligini ta‘minlash va

kiberhujumlarning oldini olish nuqtayi nazaridan takomillashtirish;

e) “E-Kengash” elektron platformasida hujjatlarni tasdiqlash va imzolashda Kengash raisini biometrik identifikatsiyalash (Face ID) texnologiyalarini joriy etish;

f) sun‘iy intellekt texnologiyalari asosida mahalliy Kengashlar qaror loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish.

IV. Farmon ijrosini tashkil etish, ta‘minlash va nazorat

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini muhokama qilish borish tavsiya etilsin.

8. Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda mazkur Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ushbu Konsepsiya doirasida amalga oshiriladigan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borsin.

10. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-iyun



Boshlanishi 1-betda

Tashrif chog‘ida oliy darajadagi muzokaralar o‘tkazildi, uning yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida Keng qamrovli sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya imzolandi. Ushbu hujjat tomonlarning savdo va investitsiyadan tortib, ta‘lim, madaniyat va xalqaro hamkorlikkacha bo‘lgan barcha muhim yo‘nalishlarda o‘zaro aloqalarni chuqurlashtirishga tayyor ekanligidan dalolat beradi. Bu, shuningdek, rasmiy Toshkent va Ulan-Bator o‘rtasidagi hamkorlikning uzoq muddatli istiqbolga yo‘naltirilgan yangi formatini ham belgilab berdi.

Hamkorlikning yangi arxitekturasini umumiy strategik manfaatlar, suverenitet va hududiy yaxlitlikni qo‘llab-quvvatlash hamda barqaror

Solih Yilmaz,
Rossiya va MDH mamlakatlari tadqiqotlari instituti
direktori, professor (Turkiya):

— Tashrif nafaqat ikki tomonlama O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston munosabatlari kontekstida, balki kengroq Yevroosiyo miqyosida ham yirik tashqi siyosiy voqea bo‘ldi. Bunday yuksak saviyada ilk bor amalga oshirilgan tashrif O‘zbekiston tashqi siyosatidagi strategik o‘zgarishlar, diplomatik va iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish yo‘lidan borayotganidan yorqin dalolatdir.

O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi yaqinlashuv dengizga chiqish imkoniga ega bo‘lmagan ikki davlatning o‘zaro yordamni kuchaytirish va barqaror transport-logistika yo‘nalishlarini yaratish istagini aks ettiradi. Qurulqikdagi transport yo‘laklarini optimallashtirish bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish taklifi uzoqni ko‘zlagan tashabbus bo‘lib, Yevroosiyo logistikasi xaritasini o‘zgartirish imkoniyatiga ega.

Ayniqsa, yetakchilari o‘rtasidagi muloqot deklarativ emas, balki amaliy xarakterga ega bo‘lgani juda muhim. Asosiy e‘tibor geologiya-qidiruv, tog‘-kon sanoati, sanoat

rivojlanishga intilishning umumiy istagini namoyon qiladi.

Tashrif davomida davlat rahbarlari mintaqaviy barqarorlik, xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik, gumanitar aloqalarni mustahkamlash masalalarini ham muhokama qildilar. Tashrifning ahamiyati va erishilgan kelishuvlar siyosatshunoslar, xalqaro munosabatlar bo‘yicha ekspertlar, mintaqaviy diplomatiya mutaxassislari uchun muhim mavzuga aylanib bormoqda.

Xalqaro ekspertlar ta‘kidiga ko‘ra, O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston muloqoti tobora barqaror va pragmatik tus olyapti, ikki tomonlama aloqalar dinamikasi esa o‘zaro manfaatdorlikdan dalolat beradi.

kooperatsiyasi, agrosanoat ishlab chiqarishi masalalariga qaratildi. Bu pragmatik iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi. Ulan-Batorda O‘zbekistonning tog‘-kon sanoati bo‘yicha tarmoq vakolatxonasining ochilishi qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi jiddiy institutsional qadamdird.

Bitimlarni amalga oshirish bo‘yicha qabul qilingan “yo‘l xaritasi” tomonlarning erishilgan kelishuvlar barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan siyosiy irodasining muhim ko‘rsatkichidir. Tadbirkorlik subyektlari, sanoat boshqarmalarining ishtiroki, O‘zbekiston mahsulotlari savdo uyining ishga tushirilishi iqtisodiy hamkorlikning barqaror dinamikasini ta‘minlay oladigan mexanizmlar sanaladi.

Mo‘g‘ulistonda O‘zbekiston madaniyati kunlarining o‘tkazilishi, akademik almashinuvga alohida e‘tibor qaratilayotgani xalqaro munosabatlarda “yumshoq kuch”ni rivojlantirish zarurligini chuqur anglaganidan dalolat beradi. O‘zbekistonning mo‘g‘ulistonlik yoshlarning ta‘lim olishi uchun kvotalarni qayta tiklashga tayyorligi uzoq muddatli gumanitar hamkorlikka asos bo‘ladigan strategik yondashuvdir.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston Markaziy Osiyo hamda Sharqiy Yevroosiyoqda barqarorlik, aloqadorlik va o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashga yordam beradigan har tomonlama va institutsional sheriklik asoslarini yaratdi. Ushbu tashrif diplomatik nafaqat ramziy yaqinlashuv, balki real iqtisodiy va institutsional o‘rnatish uchun vosita bo‘lishi mumkinligiga misol bo‘la oladi.

“
Ishonchim komilki, aynan shunday tashriflar O‘zbekistonning mas‘uliyatli, ochiq va uzoqni ko‘ra oladigan davlat sifatidagi zamonaviy qiyofasini shakllantiradi. Bu esa O‘zbekistonning kuchli yetakchisi rahbarligidagi diplomatiya tinchlik, barqaror taraqqiyot va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga ko‘maklashayotganiga yaqqol misoldir.

Albert Tam,
Xitoyning “Inter Continental Group” kompaniyasi
prezidenti, Szyansi moliya va iqtisodiyot universiteti
professori:

— O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi asosiy davlat sifatida ko‘p tomonlama aloqalarni izchil kengaytirib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mo‘g‘ulistonga tashrifi, shubhasiz, sheriklikni diversifikatsiya qilish strategiyasining bir qismi bo‘lib, ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi.

O‘zbekiston rahbarining ushbu mamlakatga ilk davlat tashrifi davomida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar g‘oyat ramziy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, unda asosiy e‘tibor iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratildi.

Ashraf Abu Arafa,
Misrning “Al-Diplomasi”
axborot agentligi bosh
muharriri:

— Tashrif ikki mamlakat aloqalarini mustahkamlash yo‘lidagi tarixiy va strategik muhim qadam bo‘ldi. Men mintaqaviy o‘rganuvchi inson sifatida O‘zbekistonning Osiyo davlatlari bilan do‘stlik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan izchil diplomatiyasiga qoyil qolaman.

Davlat tashrifi, ayniqsa, ikki tomonlama munosabatlar tarixida ilk bor amalga oshirilayotgani bilan ahamiyatlidir. Keng qamrovli sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzolashni yuksak ishonch darajasini ko‘rsatib, O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston munosabatlarida yangi davmi ochdi.

Muzokaralar davomida erishilgan kelishuvlar o‘zaro manfaatli yo‘nalishlarning keng doirasini qamrab olgani holda, ular aniq tashabbuslar bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Shubhasiz, Ulan-Batorda savdo uyining ochilishi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, qishloq xo‘jaligi va qurilish materiallari sohasida ilk qo‘shma loyihalarining ishga tushirilishi ijobiy dinamika yaratmoqda.

“
Transport aloqalarini mustahkamlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilyapti. Ekspertlar hamjamiyatini jalb qilgan holda to‘g‘ridan to‘g‘ri aviareyslarni yo‘lga qo‘yish va yangi logistika yo‘laklarini o‘rganish rejalari strategik ahamiyatga ega.

Ishonchim komilki, mazkur tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi har ikki davlatning iqtisodiyoti va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

O‘ZBEKISTON – MO‘G‘ULISTON:
O‘ZARO HURMAT,
MANFAAT VA TARAQQIYOTGA
ASOSLANGAN SHERIKLIK

Davlatimiz rahbari joriy yil 24-25-iyun kunlari Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Mazkur tashrif ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar mulqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu aloqalar izchil va tizimli hamkorlikka asoslanib, siyosat, savdo, ta‘lim, logistika va madaniyat kabi ko‘plab yo‘nalishni qamrab olmoqda. Ikki davlat ham konstruktiv muloqot va mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik tarafdori. Bu o‘rinda faol sheriklik biznes vakillari, investorlar, ilmiy doira va ikki davlat aholisi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. U milliy iqtisodiyotlarni modernizatsiya qilish, tashqi aloqalarni diversifikatsiyalash, global muammolar sharoitida barqarorlikni ta‘minlashga qo‘shimcha turki bo‘lmoqda.

Diplomatik munosabatlar o‘rnatilgandan keyin o‘tgan o‘ttiz yildan ortiq vaqt davomida birinchi marta O‘zbekiston Prezidenti Ulan-Batorga davlat tashrifi bilan bordi. Ushbu tashrif o‘tgan yilning iyunida Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida boshlangan faol siyosiy muloqotning mantiqiy davomidir.

O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston geografik jihatdan uzoq joylashgan va umumiy chegaralarga ega bo‘lmasa-da, o‘zaro aloqalar diplomatiya, iqtisodiyot, transport, madaniy va gumanitar sohalarida jadal rivojlanmoqda. Xususan, Toshkentda Mo‘g‘uliston elchixonasining ochilishi, hukumatlararo va parlamentlararo muloqot faollashgani, ikki tomonlama 14 ta bitim imzolanganini o‘zaro ishonch va sheriklikni chuqurlashtirish istagi kuchayganidan dalolat beradi. E‘tiborlisi, bitimlar orasida iqtisodiy, savdo-investitsiya, turizm, logistika kabi qator yo‘nalishlarni qamrab olgan hujjatlar bor. Bu kelishuvlar “yo‘l xaritasi”dagi aniq rejalarga asoslangan bilan ahamiyatli.

Prezidentimizning ushbu mamlakatga davlat tashrifi arafasida va tashrif doirasida o‘tkazilgan tadbirlar ana shunday yaqin hamkorlikning yorqin namunasidir.

Tashrif doirasida Ulan-Batorda O‘zbekiston san‘ati va turizm tadbirlari bo‘lib o‘tdi. Ikki mamlakat ishblarmon doiralari vakillari ishtirokida

o‘tkazilgan qo‘shma biznes forum va madaniy uchrashuvlar fikrimiz tasdiq‘idir. Ayniqsa, tadbirkorlarning yuzma-yuz uchrashuvlari, biznes ko‘priklar orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar o‘rnatilgani quvonarli va amaliy samara beruvchi jarayondir. Shuningdek, Ulan-Batorda O‘zbekiston mahsulotlarining shourumiga ega savdo uyi ochildi.

Mo‘g‘ulistonda ilk bor O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazildi. Uning doirasida mamlakatimiz tarixi va bugungi hayotiga bag‘ishlangan foto ko‘rgazma ham namoyish etildi. Madaniyat kunlarining yana bir yorqin qismi esa konsert dasturi bo‘ldi. Mo‘g‘ulistonlik tomoshabinlar o‘zbek milliy raqslari, maqom san‘ati va an‘anaviy kuylari bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston madaniyat kunlari nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, balki xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, do‘stlik va yaqinlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O‘ziga xos geografik joylashuviga ko‘ra, O‘zbekiston va Mo‘g‘ulistonning muammolari o‘xshash. Xususan, ikkala mamlakat ham to‘g‘ridan to‘g‘ri dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun ham muloqotlarda dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan mamlakatlar uchun xalqaro tahlil instituti bilan birgalikda eng qisqa va samarali transport yo‘laklarini aniqlash bo‘yicha amaliy tadqiqotlar o‘tkazish taklifi bildirildi.

Transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash va yangi logistika yo‘nalishlarini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Yil yakuniga qadar ikki mamlakat poytaxtlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Bu esa mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yaxshilash bilan birga, xalqlarni birlashtirish, o‘zaro madaniy aloqalarni mustahkamlash, sayyohlik salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kamoliddin TO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar
instituti katta ilmiy xodimi

HAMKORLIKNING YANGI ARXITEKTURASI
BARQAROR RIVOJLANISHGA UMUMIY INTILISHNI NAMOYON QILADI

Xorijiy ekspert doiralari vakillari O‘zbekiston Prezidentining Mo‘g‘ulistonga davlat tashrifi yakunlari haqida



O‘zbekiston rahbari tashrifining iqtisodiy kun tartibi sanoat kooperatsiyasidan tortib, qishloq xo‘jaligi va ekoturizmga b o‘lgan keng ko‘lami yo‘nalishlarni qamrab oldi. Ulan-Batorda O‘zbekiston mahsulotlari savdo uyining ochilishi shunchaki tadbir emas, balki savdo aloqalarini mustahkamlash yo‘lidagi haqiqiy

Viktor Kim,
Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi
Falsafa, siyosatshunoslik va huquq instituti ilmiy xodimi:

— Davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan xalqaro munosabatlar tizimida O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston sherikligini munosib ijobiy namuna sifatida ko‘rsatish mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 23-26-iyun kunlari Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning O‘zbekistonga birinchi davlat tashrifi chog‘ida ta‘kidlaganidek, ular vaziyatga bog‘liq emas. Ana shunday tamoyillarga asoslangan ikki tomonlama munosabatlar hukumatlar, parlamentlar va vazirliklar darajasidagi aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib, mamlakatlarni yaqinlashtirish va hamkorlik sohalarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.



Prezidentimiz Qashqadaryoga navbatdagi tashrifi chog‘ida: “...Amir Temurdek buyuk ajdodimizdan jasorat, matonat, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni meros qilib olgan mehnatsevar, samimiy va oliyjanob viloyat ahli bilan oldimizga qo‘ygan ulkan marralarga albatta erishamiz. Aminmanki, qashqadaryoliklar barcha islohotlarimizning oldingi safida bo‘ladi”, deya ishonch bildirgani bejiz emas.

QADRI TOG‘ — QALBI DARYO EL

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” sharhlovchisi

Boshlanishi 1-betda

Hududning ikkinchi yutug‘i esa yer osti boyliklari. Kaliy, marganes, ohak, toshko‘mir, rangli metall kabi ma‘danlar, ayniqsa, bu zamin ostidan gaz va neft oqib turadi. Mazkur javohirotlar asrlar mobaynida voha xalqining boy-badavlat, boshi osmon, ko‘lankasi maydon bo‘lib yashashini ta‘minladi. Ammo tabiatning yer ostiga berkitgan xazinalari yovlarning ko‘zini ham o‘ynatmay qolmadi. Ular voha xalqi boshiga qora bulutlardek yopirildi.

Ha, tarixda bu zaminda ot surgan, uni vayron etganlar son-sanoqsiz, ammo vohadan yetishib chiqqan qahramonlar undan ham ko‘p. Yillar davomida kurash, jangu jadallar bilan umrguzaronlik qilgan voha ahli ko‘p jabr chekdi, ammo sinmadi. Aksincha, quvvatlanib, ulug‘vorlashib boraverdi. Chunki ildizi baquvvat daraxtni shamol sindira olmaydi, uni changlantiradi va meva tugishiga xizmat qiladi. Qashqadaryo ahli ham uzoq yillik milliy qadriyatlarini, o‘zligi, vatanparvarlik, millatsevarlik tuyg‘usi ildizlariga bog‘langan.

Qashqa vohasida umrguzaronlik qiladigan 92 bovli o‘zbek urug‘lari: mang‘it, saroy, qavchin, qipchoq, xitoy, qirq, kenegas, qiyot, qo‘ng‘iro‘t, barloslar ota-bobolari fazilatlarini akslantiradi. Ammo dushman qarshisiga kichkina urug‘ emas, barcha urug‘ birlashib, katta xalq sifatida maydonga chiqadi. Boshini tik tutishi, uyg‘oq ruhi qahramonlarning bot-bot yetishib chiqishiga zamin yaratardi. Vohada qahramonlar bilan birga madaniyat, ma‘rifat, ilm-fan fidoyilari, olimu fuzalolar ham kamol topgan.

Ammo o‘tgan asrdagi mustamlakachilik davrida buyuk o‘tmishidan uzib qo‘yilgan xalq qiynaldi, ezildi. Ruhi tushgan aholi shijoatsizligidan hududda yashash sharoiti ham yanada og‘irlashib bordi.

Shavkat Mirziyoyev davlat rahbarligiga kelgan ilk yillarda Qashqadaryoga eng og‘ir hudud deya ta‘rif bergandi. Shuningdek, “Qashqadaryo o‘zining salohiyatiga mos yashamayapti, mamlakatimizning ko‘pgina hududlaridan ancha orqada”, deya, avvalo, xalqning ruhiyatini ko‘tardi. Asklarlarini jangga boshlagan sarkarda kabi butun xalqni ortga qaytmas islohotlar sari boshladi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari: qishloq xo‘jaligi, sanoat, tadbirkorlik, chorvadorlikka yangicha, ilgama asoslangan o‘zgarish, yangilanishlar kiritildi.

Oldinlari viloyat sanoati ulushining yarmidan ko‘pi neft-gaz va kimyo tarmog‘iga to‘g‘ri kelardi. So‘nggi yillarda elektr texnikasi,



qurilish materiallari, to‘qimachilik, mebel sanoati sohalarida “katta sakrash” yuz berdi. Hozir bu tarmoqlarning sanoatdagi ulushi 54 foizni tashkil etyapti. Lekin bu tuprog‘i oltin, xalqi alkimiyyogar bo‘lgan Qashqadaryo vohasining bor imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanilyapti degani emas. Tahillarga ko‘ra, Qashqadaryoda ishga solinmagan kamida 15 milliard dollarlik salohiyat bor. Bundan unumli foydalanish aholi hayotini yangi bosqichga ko‘tarishi shubhasiz.

Ko‘kdala — Qashqadaryo darvozasi

Poytaxtdan yo‘l olib, “Qashqadaryoga xush kelibsisiz” deb yozilgan arkadan o‘tganingizdan to viloyat markazi — Qarshi shahriga yetib borguningizcha ikki soatga yo‘l bosasiz. Avval sizni Yettitum qishlog‘i qarshi oladi. Ilgari bu yerdan o‘tguncha mashina derazasidan atrofga nazar tashlasangiz, quyoshdan tandirday qizigan keng dala-qir, tandirga yopilgan nondek

har-har joyda pastqam uylarga ko‘zingiz tushardi. Go‘yo nomiga mos, qishloqda boryo‘g‘i yettitagina tom borga o‘xshaydi. Ilk bor ko‘rgan inson borki, birinchi gapi “Bu uylarda ham odam yashaydimi?” so‘rog‘i bo‘lardi. Birinchi bor bu yo‘ldan o‘tayotgan insonga har qancha Qarshining zamonaviy inshootlari, Shahrisabzning ko‘zni qamashtiradigan tarixiy imoratlarini, Kitobning xush havosi haqida so‘zlamang, “Qashqadaryo shunaaq joy ekan-da”, degan taassurotni yo‘qqa chiqara olmasdingiz.

Hozir esa yo‘l chetida 500 dan ortiq bir-biridan shinam xizmat ko‘rsatish shoxobchalari: mehmonxona, do‘kon, oshxonalarga ko‘zingiz tushadi. Yettitum qishlog‘i esa bugun barcha qulaylikka ega zamonaviy ko‘p qavatli uylar buniyod etilgan shaharchaga aylangan.

Bu shaharcha yangi O‘zbekiston debochalaridan biri — Prezidentimiz tashabbusi va tegishli qarori bilan 2022-yilda tashkil etilgan Ko‘kdala tumanining ajralmas bo‘lagi. Biz yangi tuzilgan uchungina Ko‘kdalani yangi O‘zbekiston debochasi deya e‘tirof etmaymiz, u yerda yaratilgan shart-sharoit, amalga oshirilgan ulkan buniyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish hamda odamlarning yuzidagi kulgi-tabassum, baxt, xotirjamlik hissi, porloq kelajakka ishonch chaq nab turgan ko‘zlami



ko‘rib, bu ta‘rifni beryapmiz. Aslida, u yerdagi yurtdoshlarimiz ham bunga yuz foiz ishonadi.

— Uch yil oldin Ko‘kdala tumani markazi buniyod etilgan hududda yantoqqan boshqa narsa yo‘q edi, — deydi xalq deputatlari Ko‘kdala tumani kengashi deputati Yaxshinor Chorshanbiyev. — Qarang, ko‘z ochib yunguncha dov-daraxtlarga moy, zamonaviy bino-inshootlar, ta‘lim muassasalari, tibbiyot maskanlari mavjud, yashash uchun qulay infratuzilma yaratildi. Hattoki bu yerdagi aholi tasavvur ham etolmaydigan islohotlar, etaklarda ham bo‘lmaydigan buniyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Yaxshinor akaning to‘lib-toshib, bahri dili yayrab so‘zlashidan ham hududdagi yurtdoshlarimiz hayotiga yangicha ruh, mazmun, farovonlik kirib kelganini bilish mumkin. Ko‘kdalalik yana bir yurtdoshimiz “To‘rt yoshimda eshak minib, akam bilan dalaga qo‘y haydarдим. O‘g‘lim hozir shu yoshda bog‘chaga boryapti. Kecha inglizcha she‘r aytib berdi. Boshim osmonga yetdi. Mahallamizda juda ajoyib bog‘cha buniyod qilindi. Hamma sharoiti bor, shaharnikidan farq qilmaydi. Ba‘zan derazasidan o‘g‘limni kuzataman. Bolalar bilan o‘ynashi, ilm olishini ko‘rib, ko‘zim quvonadi. Kelgusida bu boladan katta olim chiqishiga ko‘zim yetyapti”, deya maqtanadi.

Ha, mana buni inson qadrlining yuksalishi, haqiqiy o‘zgarish, rivojlanish desa bo‘ladi. Xalqning qalbidagi kelajakka umid, ishonch mustahkam joy olishidir.

Ilgari Chiroqchi tumaniga kirgan Ko‘kdala hududida 190 mingga yaqin odam istiqomat qiladi. O‘sha paytda bu yerda atigi uchta davlat maktabiga ta‘lim tashkiloti mavjud edi. O‘tgan qisqa fursat — uch yilda yana 22 tasi qurildi. Shuningdek, hududda 120 kilometr suv, 210 kilometr elektr tarmog‘i tortildi, 605 kilometr tuproq yo‘l ta‘mirlandi, 19 ta maktab,



5 ta oilaviy poliklinika ishga tushdi. Ishlab chiqarish korxonalari soni 3 karra oshib, 220 taga yetdi.

Shiddat bilan qilingan buniyodkorlik ishlari ko‘rib, odamlar ham harakatga tushdi. Axir oldida shunday katta ishlar bo‘layotganda jim qarab tura oladimi kishi?! Bugun Ko‘kdala aholisi tadbirkor, olamga dong‘i ketgan

yuvayotgani ko‘rsatilgan edi. O‘zim ham Qashqadaryoning shunga o‘xshash qishlog‘ida ulg‘ayganman. Besh-olti yoshimdan chelaklab yoki katta idishlarni eshakka ortib suv tashiganman, o‘n-yigirma yillar bu muammo kundalik hayotimning bir bo‘lagiga aylanib ulgurandi. Shuning uchun ushbu tasvirlar menga hayratli tuyulmadi.

Qashqadaryo — boshqa daryo

Bundan 5-6 yil oldin Qashqadaryoga borgan odam bugun qayta borsa, boshqa joyga kelib qoldimmi, deya o‘yga toladi. Viloyatda buniyod etilgan, aholi uchun qulay, zamonaviy, barcha shart-sharoit, infratuzilmaga ega “Yangi O‘zbekiston” massivlari, Qarshidagi turar joy binolarini ko‘rib, ko‘z quvonadi. Masalan, Yakkabog‘ tumani markazida 1400 xonadonli 54 ta ko‘p qavatli uy, ekobozor, zamonaviy savdo va ko‘ngilochar markazi tuman aholisi turmushiga yangicha mazmun, qulaylik olib kirdi.

Shahrisabz shahrida 10 million dollarlik ko‘p tarmoqli klinika ishga tushirildi. U yerdagi zamonaviy savdo markazlari, turli mehmonxona va ma‘muriy binolar ham shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi.

Viloyat har jihatdan o‘zgarib, yangilanib, yuksalib boryapti. Bu raqamlarda ham o‘z isbotini topayotgan haqiqatdir. 2024-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 80,6 trillion so‘mni, o‘shish sur‘ati 6,5 foizni tashkil qildi. Bunda sanoat ishlab chiqarishi 8 foiz, qishloq xo‘jaligi 4,2 foiz, xizmat ko‘rsatish 10,9 foiz, chakana savdo 9 foiz o‘sd. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoat ulushi 25,7 foizni, qishloq xo‘jaligi ulushi 32,7 foizni, xizmat ko‘rsatish ulushi 41,6 foizni tashkil etdi.

Albatta, bu ko‘rsatkichlar aholi yashash sharoiti, turmushi farovonlashuvida muhim o‘rin tutdi. Xususan, 605 ming yoki rejaga nisbatan 81 ming ko‘p odamning bandligi ta‘minlandi. Viloyatda 2024-yil boshida kambag‘al oilalar soni 103 mingtani, kambag‘al aholi soni 420 ming kishini tashkil etib, kambag‘allik darajasi 11,5 foiz edi. 2024-yilda 38 ming odaladi 153 ming odam kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘allik darajasi 8,6 foizga tushirildi.

Bu yil Qashqadaryoda 470 ming odam ish bilan ta‘minlandi, 150 ming kishi kambag‘allikdan chiqariladi. Kitob tumani, Qarshi va Shahrisabz shaharlari ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirilmog‘da. Bunda hududlardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faollik ko‘rsatmoqda. Markaz xodimlari barcha uchun eshik ochib, hatto o‘zi ko‘makka muhtoj oilalarning yoniga bormoqda. Bu yerda aholi uchun ijtimoiy xizmat va yordamlar bir nuqtada kompleks shaklda taqdim etilyapti.

Kambag‘al oilalar soni yil sayin kamayib borayotgani islohotlar zamirida inson qadrlini ulug‘lash, hayoti, turmush tarzini farovonlashtirish maqsadi birlamchi ekanini ko‘rish mumkin. Eng muhimi, buni amalga oshirishda xalqimiz davlatga yelkadosh bo‘lmoqda.

Qashqadaryolik ishbilarmonlar bu masalada ancha faol. Yaqindagina “Sulton tex group” MCHJ, “Sulton styles” UK va “Toy bola” MCHJ rahbariyati nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta‘minlagan hamda ularning ijtimoiylashuviga ko‘maklashgan tashkilot sifatida “Inklyuziv ish beruvchi” mukofoti bilan taqdirlandi.

Nafaqat tadbirkorlar, balki oddiy oilalar ham savotalab. Yurtdoshlarimiz, ayniqsa, millat kelajagi bo‘lmish bolalarni doim qo‘llab-quvvatlashga tayyor. Buni viloyatda Mehrilonlik uylari birma-bir yopilib, u yerdagi tarbiyalanuvchilari oilaviy bolalar uylariga olinayotganidan ham bilish mumkin. Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifi chog‘ida mana shunday ko‘ngli yarim bolalarni oilasi bag‘riga olgan ota-onalar bilan ko‘rishgandi. Prezidentimiz “Davlatimiz siyosatini amalga oshirib, bolalarning boshini silab, oilangiz bag‘riga olganingiz uchun sizlarga ta‘zim qilib, rahmat aytaman. Siz o‘zligimizni, xalqimiz ma‘naviyatini namoyon etib, namuna bo‘lyapsiz. Bu qiyin, buni hamma ham tushunmasligi mumkin. Lekin bu savob ishning ajru mukofoti juda ulkan. Siz tarix yaratyapsiz, o‘zingizga ma‘naviy haykal qo‘yyapsiz. Xalqimiz bunday olijanob fazilatlarni yuksak qadrlaydi”, deya ta‘kidlagan.

Ha, “el kuchi — sel kuchi”, deya bejiz aytishmaydi. Islohotlarga Qashqadaryo ahli bosh qo‘shib, bugun u katta harakatga aylanmoqda. Bu harakat ertaga “Inson qadri uchun” formulasi, “Inson — jamiyat — davlat” tamoyillariga asoslangan yangi O‘zbekiston degan jamiyatga aylanishi shubhasiz.

Deydlar: “Chaqnagan qaysi yurt erur, Buyuk sohibqiron sochgan ziyodan?”. Javob berdilarki: “Hech so‘nmas bu nur, Taralagan eng avval Qashqadaryodan”.

Azaliy muammordan asar ham qolmaydi

Bir kuni hamkasbim Mo‘tabar Xushvaqtovanning “Suv” nomli qisqa metrajli filmni ko‘rsatdi. “Do‘stim, qara, ko‘rib yuragim ezilib ketdi”, dedi u videolavhaga ishora qilib.

Lavhada Dehqonobodning Oqrobot qishlog‘idagi oddiy odamlarning katta suv idishlarda eshak, arava, mototsikllarda suv tashiyotgani, idish-tovoqlarini arqida

Boshlanishi 1-betda

Qiyin sharoitdan chiqishga intilib, chora topolmayotgan insonga ko‘rsatiladigan kichik yordam ham uning hayotini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bugun ana shunday o‘zgarishlar bilan yashayotgan minglab yurtdoshlarimiz haqida bilamiz. Mahalla ko‘magida olingan imtiyozli kredit, biror hunar boshlash uchun berilgan beminnat ish qurollari sabab kambag‘al oiladan ish beruvchi tadbirkorga aylanganlar qancha. O‘zim ham ularning bir nechasi haqida maqolalar tayyorlaganman. Ochig‘i, imkoniyat to‘g‘ri chamalansa, yo‘nalish aniq ko‘rsatilsa, eng muhimi, odamning o‘zida harakat bo‘lsa, hozir bir chekkada qashshoq bo‘lib yashashning imkoni yo‘q. Hech bo‘lmaca, uyingizga nega bekor o‘tirganingizni so‘roqlab kelib, biror ish boshlashni taklif qiluvchilarning qadami uzilmaydi. Hol-ahvol so‘rovchilar esa qo‘shnilaringiz emas, davlat idoralari vakillari bo‘lyapti.

Shu yil 16-iyun kuni davlatimiz rahbari raisligida islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarining borishi va aholini qiyinayotgan masalalar tahlili bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ushbu jihatga takror va takror urg‘u berildi. Aholining dard-u tashvishlarini eshitib, ularga sharoit yaratib berish rahbarlarning asosiy vazifasi ekani ta’kidlandi. Endi odamlar muammolari bilan ishlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Suv bo‘lsa, tomorqadan foydalanuvchilar ko‘payadi

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani Takiya mahallasi og‘ir hududlardan. Bu yerda ishsizlik



va kambag‘allikni qisqartirish Kadastro agentligi zimmasiga yuklatilgan. Dastlabki jarayonda hudud o‘rganilib, aholining asosiy daromad manbai dehqonchilik va chorvachilik ekani aniqlandi. Mahallada istiqomat qiladigan 3882 kishining aksariyati xonadonidagi tomorqada

mahsulot yetishtiradi. Ammo olingan hosilning asosiy qismi ro‘zg‘ordan ortmaydi. Bir qismigina bozorga olib chiqiladi. Xonadon egalari shundan ozgina daromad qiladi.

Hosilning ko‘p emasligi sug‘orishdagi muammolar bilan ham bog‘liq. Mahalladagi ariqqa yaqin joylashgan 20 ta xonadon shaxsiy elektr nasosi orqali suv chiqargan. Unga sarflanadigan elektr energiyasi xarajati cho‘ntagi baquvvat oilani ham qiyinab qo‘yadi. Kambag‘al

birinchilardan bo‘lib quyosh panelida ishlaydigan suv nasosi o‘rnatib berildi. Quyosh panelining quvvati 60 kilovatt. Kun davomida nasos hech qanday xarajatsiz ishlaydi. Zamonaviy suv nasosi mahalladagi 200 ta xonadonni suv bilan ta’minlamog‘da. Qurilma soatiga 1000 kub metr suv chiqaradi. Hududda 8 ta ko‘cha bo‘lib, ularda yashovchilarning tomorqasi har kuni navbati bilan sug‘oriladi.

Suv chiqarish nasosi quyosh paneli yordamida ishlagani bois, undan foydalanish aholiga tekin tushyapti. Ya’ni qurilma odamlarning sug‘orish uchun sarflanadigan elektr energiyasi xarajatinı kamaytirdi. Sug‘orish bilan bog‘liq muammo yechilgani kambag‘al oilalarning ham tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirmog‘da.

— Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan, — deydi Kadastro agentligi direktori o‘rinbosari Abdushukur Abdullayev. — Buning uchun davlatimiz rahbarining alohida qarori bilan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ham ishga tushirilgan. Unda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruv organlariga muayyan hudud birlashtirilgan, ulardagi kam ta’minlangan oilalarni kambag‘allikdan chiqarish vazifasi belgilangan. Kadastro agentligiga ham yurtimiz bo‘ylab bir qancha hudud, xususan, turli viloyatlardagi ayrim mahallalar birlashtirilgan. Qiziriq tumanidagi mahallalar shular jumlasidan. Bugunga qadar tumanidagi 34 ta oilaning bandligini ta’minlash va farovonligini oshirish maqsadida chorva mollari, turli ish qurollari topshirildi. Texnikani berish bilan ish bitmaydi. Tajribasi bo‘lmagan odamga maslahat, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish ham zarur. Jarayonda kam ta’minlangan oilalar

oilani-ku aytmasa ham bo‘ladi. Odamlar tomorqasi, bilagida kuchi bo‘la turib, yerdan samarali foydalana olmayotgani boisi shunda.

Ushbu masalaning zamonaviy hamda innovation yechimi sifatida Kadastro agentligi tomonidan Takiya mahallasiga mamlakatimizda

Kambag‘allikdan farovonlik sari

QUYOSH PANELIDA ISHLAYDIGAN SUV NASOSI

KAM TA’MINLANGAN OILALAR UCHUN TEJAMKOR TEXNOLOGIYA



a’zolarining tadbirkorlik faoliyatini boshlashi yoki tomorqadan samarali foydalanishiga ko‘maklashish ham asosiy vazifamiz va bu boradagi ishlar ham tizimli bajarilmoqda.

Ham iqtisod, ham daromad

Sug‘orish tizimida quyosh nuridan foydalanish — yangicha yechim. Boshqa jihatdan, hozir yurtimizda barcha soha va tarmoqda energiyatejamkor, ekologiya uchun zararsiz, arzon va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga o‘tilayotganining natijasi bu. Samaradorligini esa chamalash qiyin emas. Mana, Takiya mahallasi bir misol. Kambag‘al oilalar elektr energiyasi xarajati sabab suv chiqarish

nasosidan foydalana olmagan. Tabiiy sharoitda sug‘orishning esa doim ham imkoni yo‘q, ariqlarda suv sayozlab ketgan bugungi sharoitda tomorqadan ro‘zg‘orga yetarli hosil olinsa ham katta gap.

Zamonaviy suv nasoslari buning o‘ziga xos yechimi bo‘ladi. Bunday texnologiyani yurtimizning barcha hududida qo‘llash harakati boshlangan. Davlatimiz rahbarining joriy yil 1-2-may kunlari Xorazm viloyatiga tashrifida viloyatda ekin maydoniga suv chiqarish oson emasligi, mamlakatdagi nasoslarning 21 foizi shu yerda joylashgani, ularga quyosh paneli o‘rnatib, elektr xarajatinı iqtisod qilish muhimligi ta’kidlangandi. 2138 ta nasosni shu tizimga o‘tkazib, Xorazm tajribasini yaratish zarurligi ko‘rsatilgan.

Quyosh panelida ishlaydigan suv nasosini o‘rnatishdan maqsad aholi xarajatinı kamaytirish barobarida tomorqadan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini oshirishga ham qaratilgan. Chunki mamlakatimizdagi qator hududlar tajribasi tomorqaning aholi uchun yaxshigina daromad manbai ekanini ko‘rsatdi. Takiyaliklar ham amaliyotda bunga amin bo‘lyapti.

Dastlab mahalla ahliga turli sabzavot, poliz va dukkakli ekinlar yetishtirish, mavsumiy mahsulotlarni jamlash hamda bozorda sotish borasida amaliy tavsiyalar berildi. Tomorqadan yilda bir necha marotaba hosil olib, doimiy yoki qo‘shimcha daromad manbai yaratish mumkinligi ko‘rsatildi. “Ochig‘i, tomorqadan umumli foydalanib, yaxshi daromad olish borasida Sayxunobod tajribasiga havas qilardik. Ammo sug‘orish bilan bog‘liq muammo sabab bozorbop mahsulot yetishtira olmaganmiz. Suv nasosi o‘rnatilganidan keyin o‘zimiz ham turli mahsulotlarni yetishtirishga qiziqib, kirishib ketdik”, deydi fuqarolardan biri.

Avvallari hudud aholisi, asosan, beda yetishtirgan. Sayxunobod tajribasi haqida yozganimizda tuman mutasaddisi bilan beda va sabzavot ekinlarining bozordagi narxini hisoblab ko‘rgandik. O‘rtdagi farq bir necha barobar yuqori. Vaholanki, aholining ko‘pi bedani hatto sotmaydi ham, asosan, chorva uchun yetishtiradi, yer bo‘sh turmasligi uchun bir emak.

Takiya mahallasi endi tomorqaga daromad manbai sifatida qaray boshladi. Yilning qaysi fasli bo‘lmasin, suvdan xavotir olmaydi, quyosh panelida ishlaydigan nasos doim ishlab turadi. Odamlar yerga qadagan ekinini vaqtida sug‘orib, ko‘kartiyaapti. Xonadonlardagi tomorqada sabzavot va poliz ekinlari, ko‘katlar yetishtirilayapti. Aholi oladigan hosilini oilaviy ehtiyojidan orttirib, bozorga olib chiqadi.

Ayrgancha, Yangiyo‘l tumanidagi ko‘kat yetishtirishga ixtisoslashgan mahallalar haqida yozganimda odamlar tomorqasidan yil davomida tindirmay hosil olishi, ko‘katdan yaxshigina daromad topishiga shaxsan guvoh bo‘lgandim. Qalovini topsang, qor ham yonadi, deiyishgani rost. Hozir tomorqaga kirib olib, tinimsiz mehnat qilishdan ko‘ra, zamonaviy texnika yordamida bilimga asoslangan usullarni qo‘llash ancha samara beradi.

Quyosh panelida ishlaydigan suv nasosini olaylik. Qurilma yordamida suv chiqarish uchun inson omili ta’siri kerak emas, to‘liq elektron tizim asosida ishlaydi. Texnikadan hududda elektr energiyasida uzilish bo‘lgan vaqtlarda ham foydalanish mumkin. Chunki qurilmaning ishlashi umumiy tarmoqqa bog‘liq emas. Quyosh nuridan quvvat oladi va kun davomida ishlab beradi. Bu ekinlarni sug‘orish jarayonida uzilish bo‘lmaydi, suv uzluksiz ta’minlanadi, degani.

Quyosh paneli harakarga keltirayotgan suv nasosi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham samarali. Innovation yondashuv esa aholi farovonligini oshirishga xizmat qilaypti.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mulohaza



QADRIYATLAR QO‘RIG‘IDAGI IQTISODIYOT

Boshlanishi 1-betda

Sayyohlik bugun yurtimizdagi istiqbolli sohalardan biriga aylandi. So‘nggi yillarda mamlakatimizning turizm eksporti 1,6 barobar oshib, 4 milliard dollarga yaqinlashdi. Bu raqam ortida mamlakatdagi faollik, tadbirkorlik muhiti va xizmat ko‘rsatish sohasidagi sifat o‘zgarishlari mujassam. Ya’ni turizm bugun nafaqat milliy iqtisodiyotning muhim ustuni, balki ijtimoiy barqarorlik omili va ko‘plab oilalarning daromad manbaigacha aylanmoqda.

Albatta, hech bir soha tashqi omillarsiz rivojlanishi qiyin. Bugun yurtimizda tashqi investitsiyalarni sohalarga yo‘naltirish bo‘yicha qator ishlar qilinmoqda. Endi xalqaro moliya tashkilotlari, ishbilarmonlarning sarmoyasini mamlakatimizga yo‘naltirib, biznesini ochishi O‘zbekistonga ishonchidan darak.

Davlatimiz rahbari IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida “Keling, birgalikda shunday investitsiya muhitini yarataylikki, u daromad keltirish bilan birga, inson qadrini ulug‘laydigan, uning hayotiy manfaatlarini ta’minlaydigan va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan mustahkam poydevorga aylansin!” deya ta’kidladi.

O‘tgan 8 yilda sohaga 6 milliard 500 million dollar sarmoya kiritilib, 130 mingta mehmon o‘rni ochilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda tarmoqda 2500 dan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritib boshlagani bunga yaqqol misol.

Bu ishbilarmonlar ko‘payishi, yangi ish o‘rinlari ochilishi bilan birga, vatandoshlarimiz dunyogarashida turizmning biznes, xizmat ko‘rsatish va madaniyat omili sifatida qabul qilina boshlaganidan dalolat beradi.

2024-yilda O‘zbekistonga 10 milliondan ortiq xorijiy sayyoh kelgan. 2023-yilda bu raqam 6 milliondan ziyodni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 5 milliondan ortiq kishi yurtimizda mehmon bo‘lgan. Raqamlar orasidagi tafovutdan ham sohadagi yutuqni ko‘rish mumkin. Bu

faqat valyuta tushumi yoki raqam emas, balki yurtimizga ishonch, qiziqish va ehtiromning o‘zga xalqlar ongida qaror topayotganidan darak beradi.

Ichki turizm rivojlanmoqda

Oldinlari bir viloyatdan ikkinchi viloyatga sayohat qilish uchun asosiy ulov yengil avtomobil edi. Yo‘lkrani aksariyat aholining cho‘ntagi ko‘tarmasdi. Shu bois, mahalliy turizm ko‘rsatkichi juda past edi. Endi viloyatlararo zamonaviy avtobuslar, tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilishi, mahalliy aeroportlar qurilish yoki ta’miridan chiqishi ortidan ichki turizm ham rivojlanmoqda. Shuningdek, har bir viloyatga zamonaviy talablarga javob beradigan jamoaviy transportlar keltirilishi ham shaharlar ichida qulay jamoat transporti shakllanishiga turtki bermog‘da. So‘nggi yillarda ichki turizmga e’tibor kuchaygani tufayli mahalliy sayyohlar soni 23 millionga yetgan.

Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi va konservatsiyasi shunchaki binolarni ta’irlash emas, balki xalqning o‘tmish bilan uzviy aloqasini tiklash, milliy o‘zlikni asrab qolish jarayonidir. So‘nggi to‘rt yilda 327 ta bunday obyektda qayta tiklash ishlari bajarilgani — davlatning madaniyatga, tarix va ma’naviyatga e’tiborining amaliy ifodasi.

Ichki turizm rivoji jamiyatning o‘ziga qarash salohiyati, o‘zini anglash darajasi va ma’naviy yuksalish o‘lchovidir. O‘z yurtini bilishga harakat qilgan millatgina dunyoga chiqqanda boshini baland ko‘tarib, so‘zini ayta oladi. Bu jarayonda har bir tashabbus, har bir islohot ma’naviyat va mas’uliyatga xizmat qilmoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Son oshib bormog‘da, ammo...

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar orqali kelgusida sayyohlar sonini 15 millionga yetkazish va eksport qiymatini 4 milliard dollardan oshirish rejalashtirilmoqda. Bu maqsad faqat raqam emas, balki amaliy qadamlar bilan mustahkamlanib, iqtisodiy o‘sishning yangi bosqichiga ko‘tarilishga qaratilgan muhim strategiyadir. Turizmga faqat iqtisodiy manba sifatida emas, balki millatning madaniy boyliklarini dunyoning turli burchaklariga yetkazish, xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlash vositasi sifatida ham qarash kerak.

Sayyohlik faoliyati rivojlanishi bilan birga, tarixiy muhitni to‘g‘ri saqlash masalasi ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bir tomondan, turistlar uchun qulaylik yaratilib, ularni jalb etuvchi turli xizmatlar ko‘payayotgani quvonarli hol. Ammo ko‘p hollarda bu “qulayliklar” tarixiy obidalarining qadr-qimmatini susaytirayotgandek.

Yaqinda Xorazmga bordim. Ichanqal’a ziyoratida guruh-guruh bo‘lib aylanib yurgan mahalliy bolalarni ko‘rib, tashqaridan qaragan odam ularning tarixni o‘rganishga ishtiyoqi baland deb o‘ylashi tabiiy. Zotan, yosh avlodga tarixni faqat darsliklar emas, balki muhit orqali, shaxsiy namuna asosida anglatishimiz zarur. Bu tarix, bu meros faqat turistlar uchun emas, avvalo, biz — o‘zbeklar uchun tabarruk va bag‘rikeng tarbiya manbai bo‘lishi kerak. Ko‘p o‘tmay, fikrim o‘zgardi. Avvalo, bu bolalarning

Bugun nafaqat Xorazm, balki boshqa tarixiy shaharlarda ham bu kabi ko‘ngilni xira qiladigan hodisalar ko‘plab uchrab turibdi. Zero, tarixiy muhitni saqlagan holda ham turizmni

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Nuqtayi nazar

Bugungi O‘zbekiston tarixiy o‘zgarishlar pallasida yashayapti. Har bir kun — yangilanish, har bir qaror — taraqqiyot, har bir tashabbus — xalq farovonligi uchun xizmat qilayotgani ayni haqiqat. Hozirgi keng ko‘lamli islohotlar zamidida inson qadrini ulug‘lash, har bir fuqaroning hayotini isloh etish, odamlarning ertangi kunga ishonchini mustahkamlash, kelajak egalarini bunyodkor kuch etib tarbiyalashdek olijanob maqsadlar mujassam.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV, pedagogika fanlari doktori, professor

Joriy yil 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida islohotlar natijasi, hududlardagi ishlarning barori, ayniqsa, xalqimizni o‘ylantirayotgan masalalarga yechim topish borasidagi dolzarb vazifalar aniq va chuqur tahlil etildi.

Intizom — islohotlar yuzi

“Davlatimiz rahbari sanoat, eksport va investitsiya sohalarida erishilgan ulkan yutuqlarni e’tirof etdi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechilmayotgani, mahalliy rahbarlarning tashabbuskorlik ko‘rsatmayotganini qattiq tanqid qildi. Prezidentimizning “Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turganini unutmashimiz kerak. Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat” degan so‘zlari rahbarlar qalbiga muhrlanishi, faoliyatida mayoq bo‘lishi shart. Bu nafaqat burch, balki vijdon amridir.

Amir Temur bobomiz “Mamlakat ahvolidan, fuqarolarning tinch-osoyishtaligi va farovonligidan xabardor bo‘lmoq, ularning arz-dodini tinglab, muammolarini hal etishga kirishmoq — davlat boshlig‘ining asosiy vazifasidir”, degan. Sohibqiron saroyida el-ulusning murojaatiga doim quloq tutilgan, shikoyatlari bevosita hukmdorga yetkazilgan va adolatli yechim topilgan. Mirzo Ulug‘bek davrida ham ilmu fan rivoji bilan birga xalq farovonligiga katta e’tibor qaratilgan. Alisher Navoiy “Xamsa”sida adolati hukmdor obrazini yaratar ekan, xalq dardiga quloq solish, hayotini yaxshilash — podshohning eng muhim vazifasi ekanini uqtirgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida ham xalq bilan muloqot

qilish, ahvolidan xabar olish, muammolarini hal etish borasidagi misollar ko‘p uchraydi. Buyuk bobolarimizning davlatni boshqarishdagi asosiy tamoyili xalqparvarlik, adolat va insonparvarlik bo‘lgan. Bugungi islohotlar ham xuddi ana shu azaliy qadriyatlariga tayanib, yangicha mazmun bilan boyimoqda.

Yig‘ilishda ijro intizomini mustahkamlash, xalq muammolari bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy etilishi alohida qayd etildi. Endi Hisob palatasi ijro intizomiga mas’ul bo‘ladi, uning vakolatlari kengaytiriladi. U nafaqat mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishini kuzatadi, balki har bir qarorning ijrosi natijadorligini tahlil qilib, kamchiliklarni aniqlaydi va takliflar kiritadi. Bu esa mablag‘larning har bir tiyini xalq manfaatiga xizmat qilishini ta’minlaydi.

“Xalq nazorati” — shaffoflikning haq yo‘li

Endi aholi bilan muloqotni kuchaytirish, muammolarini joyida, tezkor hal etish maqsadida “Xalq nazorati” elektron portali ishga tushiriladi. Bu tizim aholiga o‘z hududidagi qurilish, obodonlashtirish va infratuzilmadagi muammolarini suratga olib, aniq manzilini ko‘rsatgan holda mobil ilova orqali portalga yuborish imkonini beradi. Har bir muammoning yechimi furosat bilan tasdiqlanadi, hokimlar faoliyati esa kunlik baholanadi. Ushbu tizim murojaatlarning yagona platformasi bo‘lib, barcha vazirlik, idora va hokimliklarni birlashtiradi.

Yana bir muhim amaliyot — endi Xalq qabulxonalariga tuman va viloyat hokimlarining o‘zlari rahbarlik qiladi. Murojaatni bir idoradan ikkinchisiga yuborishdek eski amaliyotga chek qo‘yilib, masalani shu yerning o‘zida hal etish vakolati kengaytirildi. Bu choralar qo‘g‘ozbozlik va byurokratik to‘siqlarni yo‘q qilib, murojaatlarni tez va samarali hal etishga xizmat qiladi.



Mahalliy boshqaruv tizimida yangi tajriba

Yig‘ilishda mahalliy boshqaruv tizimida ham chuqur o‘zgarishlar belgilandi. Har bir hokimga 4 o‘rinbosar birkiritilib, rivojlanish rejasiga qarab, barcha masala tegishli o‘rinbosarlarga hokim tomonidan belgilab beriladi. Hokim va o‘rinbosarlarining aniq vazifalari moliyaviy ta’minot bilan belgilanadi. Agar ular samarali ishlasa, keyingi yildan hududga beriladigan mablag‘ 10-15 foiz ko‘paytiriladi. Aks holda, mablag‘ oshirilmaydi va mas’ul rahbar ishdan ketadi. Bu tizim rahbarlarni mas’uliyatini oshirishga, faoliyatiga yanada jiddiy yondashishga undaydi.

Tumanda “Islohotlar shtabi” tuzilib, 3 oy

Joriy yil boshidan hozirgacha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan jami murojaatlar 36 tani tashkil etgan bo‘lsa, universitet vakolatiga doir 8 tasi ijobiy hal etilgan. Universitet vakolati doirasidan tashqari 17 ta murojaat egasiga huquqiy tushunchalar berish va boshqa hal etuvchi organlarga yo‘naltirish orqali talabi qondirilgan. Shuningdek, 11 ta murojaat hozir belgilangan tartibda o‘rganilmoqda.

ichida tumaning 38 ta mahallasi kesimida loyiha, infratuzilma, moliyaviy manba va kadrlar masalasini qamrab olgan uch yillik dastur tayyorlanadi. Kelgusi yil uchun byudjet, infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat, investitsiya va bandlik dasturlari shu asosda tasdiqlanadi. Bu yangi tajriba kelgusi yildan butun respublikada qo‘llanadi.

“Yashil hudud”lar va shaharsozlikdagi yangicha qarash

Hududlarda “yashil hudud”, sport maydonchalari, bolalar o‘yingohlarini boshqa maqsadlarda berib yuborish holatlari aniqlanib, joyiga qaytariladi. Ko‘p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo‘yicha hokimlarning qarorlari o‘rganilib, qonunga zidlari bekor qilinadi.

Bundan tashqari, tumanlarda boshqaruv tizimi ham o‘zgaradi. Bu tizim yil yakunigacha

Surxondaryo viloyatida to‘liq, qolgan hududlarda jadal rivojlanish belgilangan 16 ta tuman va shaharda joriy etiladi. Sirdaryo tumani misolida kompleks rivojlanishga mas’ul 9 ta vazirlikning tuman bo‘limi hokimlik tizimiga o‘tadi. Ulardagi jami shatlar qisqartirilib, ishga olish va lavozimidan ozod etish bo‘yicha tegishli qarorlar hokim tomonidan qabul qilinadi. Sirdaryo tumani ixtiyoridagi ma’muriy va moliyaviy jarimalar, soliq tekshiruvlari bo‘yicha penya, toifasi o‘zgargan qishloq yerlari uchun kompensatsiya, o‘rmon yerlari hududlarining ijara to‘lovlar, ko‘rsatilgan davlat xizmatlaridan tushgan mablag‘larning bir qismi qoldiriladi. Bu mablag‘lar mahalliy byudjetni mustahkamlashga va aholining ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltiriladi.

Ish fuqaro roziligidan boshlanadi

So‘nggi yillarda fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash, muammolarga yechim izlash

barcha darajadagi davlat organlarining asosiy vazifasiga aylanib ulgirdi. Ayniqsa, ta’lim sohasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish orqali yoshlarimizning ilm olishiga, bilim va salohiyatlarini yuzaga chiqarishiga imkoniyatlar eshigi keng ochilmoqda. Bu borada Farg‘ona davlat universiteti jamoasi ham o‘z vazifalarini siddiqildan bajarib kelmogda.

Murojaatlarning belgilangan talablarga muvofiq ko‘rib chiqilishi ta’minlanmoqda. Oliyog‘ning jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi xodimlari “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun hamda aholini qabul qilish, fuqarolarning murojaatlari va muammolarini samarali hal etish tizimini takomillashtirish yuzasidan tuzilgan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq ochiqlik, shaffoflik, xolislik tamoyili asosida faoliyat yuritmoqda.

Joriy yil boshidan hozirgacha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan jami murojaatlar 36 tani tashkil etgan bo‘lsa, universitet vakolatiga doir 8 tasi ijobiy hal etilgan. Universitet vakolati doirasidan tashqari 17 ta murojaat egasiga huquqiy tushunchalar berish va boshqa hal etuvchi organlarga yo‘naltirish orqali talabi qondirilgan. Shuningdek, 11 ta murojaat hozir belgilangan tartibda o‘rganilmoqda.

Bundan tashqari, universitet rahbariyati hamda fakultet dekanlarining shaxsiy qabuli, mahallalararo hamkorlik, onlayn qabul, sayt, murojaat botlari, elektron pochta hamda ishonch telefoni orqali kelib tushayotgan murojaatlarning har birida ko‘tarilgan muammolar o‘rinda hal etilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Ishni fuqaro roziligidan boshlash — biz uchun qat’iy o‘lchov”. Xalq dardi bilan yashash, uning muammosini o‘z vaqtda va samimiy yechish — har bir rahbarning vijdoniy burchidir. Farg‘ona davlat universiteti jamoasi bu tamoyilni o‘z faoliyatiga yo‘l ko‘rsatkich deb bilib, islohotlar samaradorligini oshirishda boshqalarga namuna bo‘lishga intilmoqda.

Videoselektorda belgilangan ustuvor vazifalar — ijro intizomi, xalq bilan muloqot, investitsiya va bandlik barchamizdan mustarak harakat, aniq javobgarlik talab qiladi. Demak, ta’lim muassasalari, xususiy sektor, mahalliy kengashlar va siyosiy partiyaalarning jips harakatigina bugungi beqaror geytitsodiy sharoitda ham barqaror rivojlanishni ta’minlashga qodir.

“Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat” degan da’vat har birimiz uchun ishlari, hayot tarziga aylanishi shart. Bu da’vat faqat so‘zda emas, amalda, qalbdan chiqqan holda namoyon bo‘lishi lozim. Zero, har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning orzu-umidlari mujassam. Ana shundagina yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi, xalqimizning farovon va baxtli hayot kechirishi ta’minlanadi.

Bugunning gapi



Feruza MUHIDDINOVA, yuridik fanlar doktori, professor

Barcha davrda insonning salohiyati, bilimi, malakasi hamda qobiliyati, boshqacha aytganda, inson kapitali jamiyatning farovonligi va davlatning iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beradigan hal qiluvchi kuch bo‘lgan. Zero, inson kapitali innovatsion va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar, global axborot tizimlari, yangi investitsiya yo‘nalishlari hamda ilg‘or biznes modellarini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir.

Xo‘sh, inson kapitali nima o‘zi? Bu atama inson umri davomida to‘playdigan bilim, ko‘nikma va sog‘liq holatini anglatadi. U odam

va jamiyatning turli ehtiyojini qondirish uchun ishlatiladigan bilim va ko‘nikmalar majmui. Inson kapitali ishchining maxsus ta’lim, kasb-hunarga tayyorlov va ishlab chiqarish tajribasi asosida to‘plangan bilimi va ko‘nikmasi hamda ularni amalda qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham unga davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik zaxirasi sifatida qaraladi. Bugun iqtisodiy o‘shining zamonaviy modellarini tabiiy resurslar yoki industrial bazadan ko‘ra, insonning bilimi, yangilik yaratish qobiliyati va ijodkorlik salohiyatiga tayanmoqda.

Dunyo tajribasi va amaliyotiga ko‘ra, aynan inson kapitaliga investitsiya yo‘naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Rivojlangan davlatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya qilish, ya’ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda shaxsning tarbiyasiga sarmoya kiritishga katta e’tibor berilmoqda.

Inson kapitali konsepsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu davlatlarda demografik omillar, ya’ni aholi o‘rtasida yoshlar ulushi yuqoriligi inson kapitaliga maqsadli investitsiya kiritish orqali jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Jahon banki va BMT hisobotlarida keltirilganidek, inson kapitaliga kiritiladigan sarmoya samaradorligi tabiiy resurslarnikiga qaraganda, ancha yuqori va barqaror bo‘ladi. Chunki bilim va mahorat to‘planadi, takror ishlatiladi, yangi qiymat yaratadi.

Hozir dunyo aholisi soni qariyb 8 milliardga yaqin. Demografik prognozlariga ko‘ra, 2050-yilga borib, bu raqam 10 milliardga yetishi kutilmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, global

IQTIDORLI YOSHLARNI ANIQLASH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘YICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

miqyosda inson kapitaliga ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Shuning uchun ham bugun davlatlar oldida turgan asosiy vazifa, eng avvalo, yosh avlod salohiyatini erta bosqichda aniqlash va rivojlantirish, teng imkoniyat yaratishdan iborat. Xususan, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqamli texnologiyalar asosidagi o‘qitish modellarini kengaytirish, dual ta’lim va kasbiy tayyorgarlikni

mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtirish bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham mazkur demografik tendensiyani inobatga olgan holda yoshlar siyosati va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qiz kirib kelmogda. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkich 1

millionga yetadi. Shu sababli mamlakatning intensiv rivojlanishi, iqtisodiy o‘shishi va ijtimoiy barqarorligida yosh avlodni to‘g‘ri yo‘naltirish, raqobatbardosh bilim va ko‘nikmalar berish, kasbga tayyorlash, ta’lim hamda ish bilan ta’minlash masalalari davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Prezident maktablari, IT parklar, yoshlar startaplari uchun maxsus grantlar joriy etilgan bunga yaqqol misol bo‘ladi. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash, ilmiy loyihalar va xalqaro stipendiyalar orqali rivojlantirish borasida ham institutsional yondashuvlar shakllanmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 15-maydagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni inson kapitalini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu farmonni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishdir.

Ikkinchidan, yoshlar bilan manzilli ishlash orqali global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash hamda mamlakat taraqqiyoti uchun yangi innovatsion imkoniyatlar yaratish.

Uchinchidan, yagona platformaga birlashtirish orqali iqtidorli yoshlarning o‘zaro hamkorligi, tajriba almashuvi va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun samarali muhit yaratish ham muhim vazifa etib belgilangan.

Farmonga muvofiq, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internat

hamda Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamjamiyati tashkil etiladi. Xalqaro maktab-internat to‘liq akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy mustaqillikka ega davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti bo‘lib, umumiy faoliyatni maktabgacha va maktab ta’limi vaziri raisligidagi kuzatuv kengashi tomonidan tartibga solinadi.

Maktabda o‘quv jarayoni 2025/2026 o‘quv yilidan boshlanadi. Bitiruvchilarga davlat namunasidagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat — shahodatnoma bilan birga yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish imkoniyatini beruvchi xalqaro ta’lim dasturi diplomi — International Baccalaureate beriladi. “Prezident iqtidorli farzandlari” milliy dasturi doirasida O‘zbekiston bo‘ylab 3 ming nafar iqtidorli o‘quvchi tanlab olinadi va oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalar asosida tayyorlanadi. Shu ma’noda, “Prezident iqtidorli farzandlari” dasturi inson kapitalini erta bosqichda rivojlantirish, ta’limda sifat va samaradorlikni ta’minlash hamda iqtidorli avlodni maqsadli qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakat taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategik yondashuvning muhim tarkibiy qismidir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash inson kapitali rivojining strategik platformasi bo‘lib, uning samarali tashkil etilishi kelajakda mamlakatning intellektual, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlaydi. Davlat siyosatida mazkur yo‘nalishni ustuvor qilib belgilash zamonaviy talablarga javob berish bilan birga yangi O‘zbekistonni global raqobat sharoitida muvaffaqiyatli ishtirokchiga aylantirishning strategik shartidir.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugun jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri resurslardan oqilona foydalanish, ya’ni tejamkorlik madaniyatini shakllantirishdir. Tejamkorlik haqida gap ketsa, aksariyatimiz suv, gaz, elektr energiyasini nazarda tutamiz. To’g’ri, bugungi globallashuv jarayoni va iste’molchi nuqtayi nazaridan shunday bo’lishi haqiqatga ancha yaqin. Lekin jamiyatda tejamkorlik madaniyatini shakllantirmay, uning inson hayotida beqiyos ahamiyat kasb etishini anglamay va anglatmay turib, maqsadga erishib bo’lmaydi.

O’spirinlik paytimiz katta yoshdagilarning xatti-harakatiga g’ashimiz kelgan ham bor gap. Bobo-buvilarimizning xonadon chiroqlarini o’chirib yurishi, jo’mrakdan shovillab tushayotgan suvni to’xtatishi yoki pasaytirishi, dasturxondagi non qoldig’i hamda daraxtdan to’kilgan mevalarni bir chekkaga to’plab, ulardan qarsildoq va qoqi tayyorlashini go’yoqi ziqnalik deb qabul qilish edi. Mana endi ular qilgan ishini o’zimiz takrorlash bilan andarmonmiz.

Bu yoshlarda, murg’ak qalblarda tejamkorlik madaniyati shakllanmaganidan, tejamkorlik bilan xasislik boshqa-boshqa tushuncha ekanini anglamaslikdan dalolat. Shu o’rinda tejamkorlikka munosabatimiz qanday ekaniga ayrim tarmoq va yo’nalishtar bo’yicha nazar tashlab olsak.

Joriy yil fevralida davlatimiz rahbari energiya samaradorligini oshirish bo’yicha takliflar taqdimoti bilan tanishish davomida Yaponiya tajribasi asosida iste’molchilarning energiya tejamkorligi madaniyatini oshirish masalasiga e’tibor qaratgan edi. Buni bolalarga maktab yoshidanoq singdirish muhimligi alohida qayd etilgandi.

Shu maqsadda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda O‘zbekiston — Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi bilan hamkorlikda energiya sarfi savodxonligi loyihasini amalga oshirmoqda. Ayni paytda mazkur jarayon uchun alohida qo’llanma ishlab chiqilgan. Poytaxt maktablarida joriy qilina boshlagan loyiha bosqichma-bosqich mamlakatimizning boshqa hududida ham ommalashtiriladi.

Darhaqiqat, avvalboshdan tejamkorlikni o’rgatish orqali bolalarda mas’uliyat va ongli iste’mol madaniyatini shakllantirish mumkin. Boshqacha ifodalasak, jamiyatdagi har bir fuqaroning tejamkor bo’lishi mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Energiya, suv, oziq-ovqat va boshqa resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror rivojlanish ta’minlanadi.

Tejamkorlik madaniyati — kelajak avlod oldidagi mas’uliyat, ertangi kun uchun poydevor. Uni har bir fuqaro hayotiga joriy etsa, nafaqat shaxsiy hayoti, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shadi.

Shu yil 26-martda energiya resurslarini iqtisod

qilish, iste’mol samaradorligini oshirish hamda ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bo’yicha o’tkazilgan yig’ilishda yirik sanoat korxonalarida energiya tejovchi qurilmalar o’rnatish hamda energiya isrofini kamaytirish bo’yicha aniq choralar ko’rish va 2025-yilda 1,1 milliard kub metr gaz, shuningdek, 2,6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini tejashga oid vazifalar belgilandi. Demak, tejamkorlik faqat aholi yoki jismoniy shaxslar emas, yuridik shaxs shaklidagi subyektlar va ishlab chiqarish korxonalari oldiga ham qo’yilayotgan talabdir.

Ichimlik suv masalasida ham ayni dolzarblik kuzatiladi. Tahlillarga ko’ra, yurtimizda ichimlik suvni isrof qilish holatlarining aksariyati hisoblagich o’rnatilmagan iste’molchilar hissasiga to’g’ri keladi. Qonunchilikka asosan, suvni hisobga olish moslamasi mavjud bo’lmagan holatlarda suv ta’minoti xizmatlari uchun aholiga belgilangan tarifga 1,5 o’rtiriluvchi koeffitsiyentni qo’llash yo’li bilan hisob-kitob qilinadi. Shunday holatlarning oldini olish uchun ham aholi xonadonlarini to’liq elektron hisoblagich bilan ta’mirlash belgilangan. 2021-yilda bu ko’rsatkich 52 foizni tashkil qilgan bo’lsa, bugun 80 foizga yetdi.

Bugun aksariyat yurtdoshimiz resurslarni iste’mol qilganlik uchun to’lov narxi oshib borayotganini turlicha talqin qilmoqda. Agar

tejamkorlik madaniyatini o’z tanamizda shakllantirmas, tafakkurimizni isloh qilib, har bir xarajaga oqilona munosabatda bo’lmas ekanmiz, narx-navo oshishda davom etaveradi. Bizdan talab etilayotgan tejamkorlik madaniyatini o’zlashtirish esa vaqti kelib, to’lovlar miqdorini pasaytirish imkonini beradi.

Axir yaqin-yaqingacha shahar va tumanlarda suv tanqisligi, ko’pqavati uylarda sovuq suv bir necha soat berilishi, chekkaroq hududlarda esa odamlar uzoq masofadan suv tashib kelishi holatlari kuzatiladi. Yoki elektr, gaz ta’minotidagi uzilishlar ko’pchilikni qiynab kelayotgan muammo bo’lgan-ku! Ko’plab mamlakatlarda millionlab odam toza ichimlik

suvga tashna, bir chelak suv uchun janjal-mojarolar bo’layotgan bir paytda biz toza ichimlik suvni jo’mraklardan oqizib qo’yar edik. Sababini suvni jo’mraklardan oqizib qo’yar edik. Sababini suvni jo’rasangiz, “Sovuqda muzlab qoladi”, deb bahona topilar edi. Yoki toza ichimlik suv bilan ekinlarimizni sug’orish, mashinamizni yuvish, hovlilarimizni, ko’chalarimizni salqinlatish uchun sepih oddiy hol bo’lgan. Tarvuz-qovun, ichimliklarni salqinlatish uchun ularning ustidan soatlab ichimlik suvni oqizib qo’yadiganlar bor. Buni isrofdan boshqa nima deyish mumkin?

Bugun raqamlar jismoniy va yuridik shaxs maqomidagi iste’molchilar tabiiy resurslarga avvaligiga nisbatan ancha tejamkor munosabatda bo’layotganini ko’rsatmoqda. Lekin inson va jamiyat ravnaqi uchun faqat energiya resurslari bilan ichimlik suv tejamkorligining o’ziga kifoya qilmaydi-da. Bu borada shakllanajak madaniyatimiz bilan maqtna oladigan fursatni yaqinlashtirish uchun bizdan yana pul, vaqt, oziq-ovqat sarfi va iste’moliga ham insof bilan yondashuv talab etiladi.

Aslida, tejamkorlikning formulasi uncha murakkab emas. Tejamkorlik resurslardan oqilona foydalanish, isrof qilmaslik, kelajak uchun xazina qilish, maqsadga muvofiq sarflash jarayonidir. U o’z ichiga nafaqat shaxsiy moliyaviy tejamkorlikni, balki milliy iqtisodiyot, muhit va jamiyat oldidagi mas’uliyatni ham qamrab oladi.

Isrof — rizqqa xiyonat

Biz ba’zan tejamkorlikni kambag’allik bilan chalkashtiramiz. Aslida, bu ikkalasi tamoman boshqa-boshqa tushunchalar. Tejamkorlik

nafaqat pulni asrash, balki tabiatni, muhitni, inson mehnatini qadrlash demakdir. O’rtiqcha yongan har bir chiroq, har bir chiqidgi, bekor o’tkazilgan har bir daqiqa isrofdir. Tartibli odam faqat o’zi uchun emas, balki butun jamiyat, kelajak avlod uchun ham yashaydi. Uning har bir oqilona harakati ortida tinch, farovon va barqaror hayot kechirish ishti mujassam.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Isrof” kitobidan olingan mana bu iqtibosda katta bir maqolaning mazmuni jam bo’lgan, nazarimizda.

“Isrof” so’zi arab tilida “haddan oshish” ma’nosini bildiradi. Alloh taolo Qur’oni karimda bunday degan: “Yeb-iching va isrof qilmang. Chunki U isrof qiluvchilarni sevmas” (A’rof surasi, 31-oyat). Demak, yeb-ichishda ham isrof qilish mumkin emas ekan.

Modomiki, yeb-ichishda isrof qilmaslik kerak ekan, demak, boshqa har bir ishda ham isrofga yo’l qo’yimaslik lozim bo’ladi. Biz yeb-ichishda isrof qilmaslik deganda nimani tushunamiz? Ko’pchiligimiz yeb-ichib, to’ygandan keyin ortib qolgan narsani tashlab yuborishni isrof deb tushunamiz.

Aslida, bunday emas. Shariatga ko’ra, keragidan oltiy yeyish ham isrof bo’ladi. Rasuli akram alayhissolatu vassalom yeyishda, ichishda inson qorningning uchdan biri ozuqa uchun, uchdan biri suyuqlik, suv uchun va uchdan biri havo uchun bo’lishi kerakligini buyurgan. Bundan ortig’i isrof bo’ladi. Bu ishini qilganlar Alloh suymagan ishini qilganlari uchun U Zotning muhabbatidan mosuvo bo’ladilar...

Isrofini turmushning hamma sohasida ko’rish mumkin. Masalan, elektr chiroqlarni olaylik. E’tibor beradigan bo’lsak, yoshlarimiz bir

xonaga kirib, chiroqni yoqib, ishini bitiradi, lekin chiqib ketishda uni o’chirib qo’yishni unutishadi. Yoqilgan chiroq uch-to’rt kungacha ham o’chmay turaveradi. Yana bir misol: hozir avtoulavlar nihoyatda ko’paygan, biroq ularning qadriga yetish yo’q. Avtoulavlardan foydalanishda, ularni parvarish qilishda ham ko’p isrofgarchilikka yo’l qo’yiladi. Boshqa holatlarda ham shu ahvol.

Bir tomchi suvni ham isrof qilmaslik, elektr quvvatini tejash, uni bir lahza ham behuda sarflamaslik, isrof qilmaslik jamiyatda yashovchi har bir fuqaroning burchidir. Kiyim kiyishda, yurish-turishda, umuman, har bir sohada tejamkor bo’lish lozim”.

Bu kitob chop etilgani va o’quvchilar ko’liga yetib borganiga bir necha yil bo’ldi. Afsuski, unda ko’tarilgan muammo hamon dolzarb.

So’nggi paytlarda to’y-ma’rakalarda yo’l qo’yilayotgan ortiqcha hasham va xarajatlar jamoatchilik tomonidan tanqid qilinayapti. Taassufki, bu harakat faqat tanqid qilish bilan cheklanib qolmoqda. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar ortiqcha hashamlardan xoli o’tgan to’y va oilaviy marosimlarni targ’ib qilishga dalil, namuna izlashi samara bermayotgani ham haqiqat. Nega “Mana, biz shunday kamxarj marosimlarni boshlab berdik”, degan oilalarni topish, hammaga ko’rsatib, namuna qilish masalasi hamon ochiq turibdi?

Har birimiz hayot tarzimizni qayta ko’rib chiqaylik. Chunki kelajakda farzandlarimiz toza ichimlik suv uchun navbatda turishni yoki elektrdan mosuvo qolib, ibtidoiylashishini istamaymiz. Bugun tejamkor, oqil, mas’uliyatli bo’lsak, ertangi kunimiz farovon bo’ladi.

Vaqt — hayot, uni ko’kka sovurmaylik

Qaysidir yumushlaringizga ulgura olmayotgan paytlarda hech o’zingizga “Nega bir kun uchun belgilangan 24 soat vaqt menga yetmayapti?” degan savolni berib ko’rganmisiz? Axir vaqt hammaga teng taqsimlangan-ku. Nima uchun xuddi shuncha vaqtga ega boshqa bir inson hammasiga ulguradi, siz esa yo’q! Demak, gap vaqtda emas, balki u bilan qanday muomalada bo’lishda ekan.

Har bir soat, har bir daqiqa — hayotning bir parchasi. Vaqtni tejash — bu hayotni tejash, uni sifatliroq, samaraliroq o’tkazish demak. Kundalik ish, o’qish, tashvishlar jarayonida vaqtimizni ko’pincha o’zimiz bilmagan (balki bilgan) holda isrof qilamiz. Deylik, kun bo’yi telefonda ijtimoiy tarmoqlarni titiklaymiz, har xil vaynlarni tomosha qilamiz, ma’nisiz yozishmalar bilan mashg’ul bo’lamiz, aytishga arziqli biror foydali ish qilmay, oqshom tushganda “Vaqt tez o’tib ketdi-ya”, deb noliymiz. Aslida, vaqt tez o’tmaydi, undan to’g’ri foydalanmaymiz, xolos.

Vaqtni tejaydigan inson o’zini qadrlaydi, boshqalarning ham vaqtini isrof qilmaslikka intiladi. Ishga, va’da qilingan joyga o’z vaqtida boradi, so’z bersa, amal qiladi. Bunday odamlarga ishonch ham, hurmat ham yuqori bo’ladi. Vaqt ne’matini ortga qaytarib ham, o’rinni to’ldirib ham bo’lmaydi.

Mutaxassislar kun tartibini doim reja asosida boshqaradiganlar ishida boshqalarga nisbatan o’n chandon samara bo’lishini ta’kidlaydi. Ijtimoiy tarmoq va telekan qarshisida ko’p vaqt sarflashdan o’zini cheklagan odam vaqtini ta’limga, oilasi yoki boshqa foydali ishlarga sarflaydi. Vaqtni tejash — bu oddiy, lekin juda samarali hayot uslub. U nafaqat shaxsiy samaradorlikni oshiradi, balki oilaviy muhitni ham mustahkamlaydi.

Har birimiz isrofgarchilikka barham berishga harakat qilishimiz, o’sib kelayotgan yosh avlodni suv, elektr energiyasi, noz-ne’mat va vaqtini isrof qilmaslik, ularni tejamkorlik bilan ishlatish ruhida tarbiyalab borishimiz, buning evaziga farovonlik eshigining oltin kalitini farzandlarimiz qo’liga ishonch bilan tutqazishimiz eng maqbul yo’ldir.

Salomatlik

Ko’chalarda ilk avtomobillar paydo bo’lgandayoq piyodalarning keyingi taqdiri ehtimoliy xavotirga olingan edi. Oradan salkam bir asr o’tib, bu xavotir chinakam xavfga aylanib ulgurdi. Bugun insoniyatning ajralmas “bisot”iga aylangan avtomobil ohanrabosi sabab sivilizatsiyaning ilk bunyodkorlari safga ham tobora putur yetmoqda. Butun jahonda bu xavotirlar oshib borayotgan bir paytda O‘zbekistonda shaxsan Prezident tashabbusi bilan piyoda yurishga odatlanish orqali sog’lom turmush tarziga urg’u berilayotgani bejiz emas. Jumladan, bu borada maxsus platformalar yaratildi. “Avtomobilsiz kun” kabi aksiyalar sabab doim mashinada yuruvchilar bir oz bo’lsa-da, piyodaga aylanmoqda. Ko’pchilik endi piyoda yurishga odatlanayapti.

Shuningdek, turli fleshmoblar, mahalliy hokimliklar va sog’liqni saqlash muassasalari tomonidan uyushtiriladigan marafonlar aholini faol ishtirokka chorlamoqda. Bog’u xiyobonlar va boshqa maskanlar, tarixiy joylar bo’ylab piyodalar ko’paydi. Shu asnoda bu xayrli tashabbus nafaqat sport, balki madaniy zavq manbaiga aylanib bormoqda.

Shaxsiy avtomobillardan voz kechib, piyoda, velosiped yoki ekologik toza transport vositalaridan foydalanish orqali har birimiz o’zimiz nafas olayotgan havo tozaligiga hissa qo’shamiz. Ayniqsa, mamlakatimizda 2025-yil Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e’lon qilinishi ushbu ekologik tashabbusning ahamiyatini yanada oshiradi.

Darhaqiqat, AQSH, Yaponiya, Yevropa davlatlarida millionlarni faqat bankdagi hisob jamg’armasidan bilish mumkin. Ular oddiy odamlar qatori xiyobonlarda, dengiz qirg’og’ida piyoda sayr qiladi, velosiped minadi.

Piyoda yurishga odatlanishimizdan

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-646. 36191 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog’oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko’chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G’oziddinov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz ko’chasi, 85-uy

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist